

SPECIFIC ASPECTS OF ASSESSMENT IN MOTHER LANGUAGE SUBJECT

BAHOLASHNING ONA TILI FANIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLARI

Farrux Sidiqov *

*** Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**

Insonlar o'rtasida fikr almashish nutqiy muloqot shaklida amalga oshadi. Psixolingvistik tadqiqotlardan ma'lumki, muloqot kodlash va dekodlash jarayoni asosida yuz beradi. Bu jarayonni to'g'ri amalga oshirish uchun egallanadigan kompetensiyalarini "nutqiy kompetensiya" deyish mumkin. Shu ma'noda, nutqiy kompetensiyalar – og'zaki yoki yozma tarzda ifodalangan nutqni tushunish, anglash, idrok qilish hamda fikrni og'zaki yoki yozma shaklda tinglovchiga tushunarli tarzda ifodalash malakalari. U *tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va so'zlash* malakalaridan iborat.

Umumiy o'rta ta'limgarayonida fanga oid BKM va kompetensiyalarini baholash uchun qanday pedagogik nazorat turlaridan foydalanilishini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Huquqiy-me'yoriy hujjalarda keltirilishicha, Umumiy o'rta ta'limgarayonida muktablari o'quvchilarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'limgarayotgandek standartlariga muvofiqligini tekshirish joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat asosida amalga oshirilishi aytib o'tildi.¹

Belgilangan me'yordan ko'rindan, umumiy o'rta ta'limgarayonida o'quvchilarining BKM lari muntazam baholanib, choraklik, yillik va xulosalovchi bitiruv imtihonlari tarzida o'tkazilib boriladi. Baholashda turli, ya'ni yozma ish, og'zaki so'rov va test shaklidan keng foydalanilishini ko'ramiz. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kunlik, choraklik, yillik baholarni qo'yishda baholash mazmuni, mezoni va topshiriqlar metodikasini belgilash, ishlab chiqish o'qituvchining individual salohiyatiga yuklanganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa ta'limgarayonida sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'limgarayonida joriy – kunlik baholash tizimi ham, asosan saralash vazifasini bajarayotgandek, o'quvchilarini "3", "4", "5" baholar orqali tabaqlashtirayotgandek. Aslida esa kunlik baho o'quvchiga asosan rag'bat berishi kerak va o'quvchining xatolarini tushuntirib, o'qishidagi bo'shliqlarni aniqlab, ularni navbatdagi mashg'ulotlarda bartaraf etish uchun xizmat qilishi lozim. Tadqiqotlar yana shuni ham ko'rsatdiki, ona tili ta'limgarayonida joriy baholarni qo'yish, o'quvchining nutqiy ko'nikmalarini rivojlanishini muntazam baholash bo'yicha aniq mezoni, baholash tartibi, topshiriqlar soni, metodikasi bo'yicha aniq tavsiya ishlab chiqilmagan, asosan, darslikda berilgan topshiriqlar qarab o'quvchi baholayotir. Darsliklarda berilgan barcha topshiriqlarini tinglab tushunish, so'zlash, o'qib tushunish, yozish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan deya olmaymiz. Shuning uchun ham ona tili ta'limgarayonida formativ baholash uchun qanday topshiriqlardan foydalanish kerakligi haqida nazariy asos va statistik tahlillarga tayanib ishlab chiqilgan tavsiyalarga ehtiyoj bor. Bu masala ona tili metodistlarining oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan. Shuningdek, oraliq va bosqichli nazoratlarda foydalaniladigan topshiriqlar formati, strukturasi, mazmuni, baholash mezonnari va topshiriqlar metodikasi yuzasidan yetarli darajada tavsiya ishlab chiqilmagan. Bu sinov turlarida ham fan o'qituvchisining shaxsiy salohiyatiga tayaniladi. Shu o'rinda, shuni ham aytishimiz kerakki, yozma nutqni baholash yuzasidan tavsiyalalar ishlab chiqilgan. Xususan, diktant, bayon va inshoni baholash mezonnari va o'tkazilish tartibi belgilangan. Ammo o'qib tushunish, tinglab tushunish, so'zlash ko'nikma va malakalarini baholash, baholashda foydalaniladigan topshiriqlar metodikasi yuzasidan aniq mezonnlar yaratilmagan. Garchi so'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish uchun o'qish savodxonligini baholashga, rivojlantirishga xizmat qiladigan PISA topshiriqlar to'plami nashr etilgan bo'lsa ham, har bir sinf uchun aniq baholash tartiblari, topshiriqlar mazmuni, soni, metodikasi ishlab chiqilmagan. Bular esa shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'limgarayonida formativ baholashda ham ona tilidan nutqiy ko'nikma va malakalarini baholashga urg'u berish kerak.

Ma'lumki, qaysi davlatning ta'limgarayonida summativ baholash to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, fanlarning birlamchi malaka talablari baholanmay, amaliy ahamiyatsiz, ikkilamchi ko'nikmalarini tekshirilsa, ta'limgarayonida tizimi jamiyat

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli "Umumiy o'rta ta'limgarayonida o'qituvchining nutqiy ko'nikmalarini rivojlanish haqida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-3137130>

taraqqiyotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda shunday holatni kuzatishimiz mumkin. Xususan, amaldagi summativ baholash tizimlarida ona tilidan birlamchi malakalarning rivojlanish darajasini tekshirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Xususan, umumiy o'rta ta'limgan yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarida ham, oliv ta'limgan muassasalariga qabul imtihonlarida ham birlamchi kompetensiyalarni tekshirishga urg'u berilmaydi, balki ikkilamchi ko'nikmalar baholanmoqda.

Umumiy o'rta ta'limgan o'quvchilarning, bitiruvchilarning BKM va kompetensiyalarni baholaydigan, saralash, xulosalash vazifasini bajaruvchi summativ sinovlarni tahlil qilamiz. Bizda umumiy o'rta ta'limgan bitiruvchilarini DTSda belgilangan malaka talablarini bajarganlik darajasini tekshiruvchi bir-biridan mazmunan va metodik jihatdan farq qiluvchi ikkita sinov tizimi mayjud.

Dastlab Yakuniy davlat attestatsiyasiga² to'xtalinadigan bo'lsa, bu sinov tizimida umumiy o'rta ta'limgan bitiruvchilarining DTS da belgilangan minimal talablarni bajarganligi tekshiriladi va sinovlardan o'tganlarga o'rta ta'limgan tamomlaganligi to'g'risidagi attestat beriladi. Bu imtihonda bitiruvchilar ona tili va adabiyot fanlaridan malaka talablarini bajarganligi quyidagicha tekshiriladi. Bitiruvchilar muayyan mavzuda bayon yoki insho yozadi. Bunda ularga bayon yozish uchun 3 astronomik soat, insho yozish uchun astronomik soat vaqt ajratiladi.³ Bayon yoki insho uchun ikkita baho qo'yiladi: 5/4

Ushbu baholar adabiyot va ona tili fanlariga yakuniy attestatsiya bahosi sifatida qo'yiladi hamda shu fanlardan yakuniy baho chiqarishda asos bo'ladi.

Demak, ko'rishimiz mumkinki, umumiy o'rta ta'limgan yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruvchining yozish (insho orqali) yoki tinglab tushunish va yozish (bayon orqali) malakalari baholanmoqda. O'qib tushunish, so'zlash malakalari esa baholanmanmayotir. Natijada ona tili ta'limganida bu ikki malaka – o'qib tushunish va so'zlashni rivojlantirishga ehtiyoj sezilmayapti va ta'limgan jarayonida e'tibordan chetda qolib ketmoqda.

Katta motivatsiya kuchi va rag'batga ega bo'lgan, keyingi ta'limga o'tish uchun yo'llamma beradigan Oliy ta'limga kirish imtihonlari haqida to'xtalinadigan bo'lsa, u imtihon tizimida oliv ta'limga kirish uchun talabgorlarning ona tili va adabiyotdan BKM va kompetensiyalari yopiq turdag'i test topshiriqlari yordamida baholanadi.⁴ Bu imtihon jarayonini tashkillash etish, topshiriqlar mazmuni va metodikasini belgilash bilan Davlat test markazi (DTM) shug'ullanadi. DTM ning rasmiy veb sahifasida e'lon qilingan ona tili va adabiyot fanidan namunaviy test topshiriqlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning har birida jami 30 ta topshiriq berilgan, shundan 17 tasi ona tili, 13 tasi adabiyot fanidan. Ona tilidan tuzilgan topshiriqlar tarkibida *fonetika, leksikaligi, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksis* bo'limlari yuzasidan sof nazariy tahlilga yo'naltirilgan topshiriqlar salmoqli o'rinni egallashini, ya'ni 77 foizni tashkil etishini guvohi bo'lamiz. Yozish savodxonligiga xizmat qiladigan *imlo, punktuatsiya va uslubiyatga* doir topshiriqlarga juda kam o'rinalar ajratilgan – u bor-yo'g'i 23 foizni tashkil qiladi. DTM oliv ta'limga kirish test sinovlarida bunday topshiriqlardan foydalanishining bir qancha sabab va omillari bor. Chunki test topshiriqlarini amaldagi DTS, o'quv dasturlari va darsliklarga asosan shakkantiriladi. Bundan tashqari, test topshiriqlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan sub'yektiv omillar ham bor. Shu bilan birga, Ona tili va adabiyot fanidan namunaviy test topshiriqlari tarkibida keltirilgan test topshiriqlaridan ayrimlarini tahlil qilib ko'ramiz.

Bu test topshirig'ini bajarish uchun o'quvchidan so'z yasalishi, morfemika, morfologiya va leksikologiyaga oid nazariy qoidalarni mukammal bilish talab etiladi. Ushbu test topshirig'i orqali o'quvchining sof lingistik bilimi va nazariy ko'nikmasi baholanadi. Keyingi testni ham tahlil qilamiz.

Shuningdek, ushbu test topshirig'ini shakkantirishda baholashni loyihalashtirishga amal qilinmagan, baholashning maqsadi, turlari farqlanmagan, test topshiriqlarini yaratish bosqichlari hisobga olinmagan, shu bilan birga, o'quvchilarning ikkilamchi ko'nikmasi – lingistik tahlil qilish ko'nikmasini tekshirishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Oliy ta'limga kirish test sinovlarida ona tili va adabiyotdan o'quvchilarning BKM larini tekshirish, saralash uchun summativ emas, balki formativ baholashda qo'llanadigan topshiriqlar mazmuni va metodikasidan foydalanish ustuvorlik qiladi. Ya'ni lingistik tahlil, unga oid bo'lgan nazariy bilimlar kunlik – formativ baholashda tekshiriladi. Chunki muayyan, aniq chegaralangan mavzu yuzasidan amalga oshirilgani uchun o'quvchida mexanik xotira – yoddan eslab qolish bilan bog'liq mushkulliklarni, muammolarni yuzaga keltirmaydi. Ammo 1-sinfdan 11-sinfgacha barcha o'tilgan nazariy mavzular bilan bog'liq sof nazariy tahlillarni esda saqlab qolish o'quvchi xotirasining zo'riqishiga olib keladi. Natijada bu o'quvchi psixikasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun ham xorijiy tajribalar AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya va Turkiya tajribasini kuzatsak, summativ baholashda nutqiy malakalarni, real hayotda foydalaniladigan amaliy ko'nikmalarni tekshirishga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham, O'zbekistonda oliv ta'limga

²

³ Xalq ta'limgan vazirining 2008-yil 4-martdag'i "Umumiy o'rta ta'limgan oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi 56-sonli buyrug'i bilan tasqiqlangan nizom. <https://lex.uz/docs/-1331874>

⁴ https://dtm.uz/upload/file/pdf/nt/Ona_tili.pdf

kirish imtihonlarida bunday testlarning ko‘plab foydalanimli o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga bo‘lgan, ehtiyoj yo‘qolishiga, ta’limda ikkilamchi ko‘nikmalarni o‘rgatishga urg‘u berilishiga olib kelgan.

Hozirgi global zamon ona tili ta’limi tilshunoslarni tayyorlashni emas, til imkoniyatlardan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etmoqda. H.Ne’matovning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili ta’limi va uni baholash uchun birdek ahamiyatlari: “Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasi. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhidha tarbiyalash va rivojlantirishni ta‘minlaydigan bilimlarni tushunamiz”. Darhaqiqat, summativ baholashda foydalilanligidan topshiriqlar mazmunini belgilashda ham hayot uchun kerakli, foydali, amaliy BKM larga tayanilishi lozim. Shunda o‘quvchi fikrlarini ifodalashi shunchalik oson kechadi, borliqni anglash qobiliyatni rivojlanadi, u turli nutq vaziyatida tengdoshlar yoki kattalar bilan mazmunli va to‘laqonli muloqotga kirisha oladi, muloqot jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lgani bois ularning tafakkuri ham shunchalik faol rivojlanishda bo‘ladi.⁵

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, umumiyl o‘rtta ona tili ta’limida asosan ikkilamchi ko‘nikma – matnni lingvistik tahlil qila olish ko‘nikmasi yoki faqat yozma savodxonlik baholanib kelmoqda; ikkinchidan, baholash turlari va metodikasi farqlanmayapti, asosan, summativ baholash formati o‘rniga formativ baholash metodikasidan foydalilmoxda; uchinchidan, baholash jarayoni loyihalashtirilmayapti; to‘rtinchidan, baholashda foydalilanligidan topshiriqlar formati, spesifikatsiyasi tuzilmayotgan bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonda umumiyl o‘rtta ta’limda o‘quvchilarning ona tilidagi matnni o‘qib tushunish malakasi baholanmay kelmoqda. Natijada baholash talabiga asosan ona tili ta’limida ham o‘quvchilarda aynan lingvistik tahlil ko‘nikmasini rivojlantirishga e’tibor berilmoxda.⁶ Shu bois o‘rtta ta’limni tamomlagan bitiruvchilarda insonlarni tushunish, nutqni idrok qilish, matn mazmunini anglash va o‘z fikrini nutqiy vaziyat va ishtirokchilarining darajasiga mos tarzda og‘zaki va yozma tarzda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlanmayapti. Zotan, ona tili ta’limi maqsadining asosiy unsurlaridan biri o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglashdir.

ADABIYOTLAR

1. https://dtm.uz/upload/file/pdf/nt/Ona_tili.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagи 140-sonli“Umumiyl o‘rtta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-3137130>
3. Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagи “Umumiyl o‘rtta ta’lim oluvchilarning yakuniyl davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi 56-sonli buyrug‘i bilan tasqiqlangan nizom. <https://lex.uz/docs/-1331874>
4. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. O‘qituvchilar uchun metodik ko‘llanma. – T.: O‘qituvchi. 1996. 9-b.

Reviewer:

F. G. Sharipov

DSc, Professor

Gulistan State University

AUTHOR(S):

Author – Farrux Sidiqov, farrux_sidiqov@gmail.com

Corresponding author – Farrux Sidiqov, farrux_sidiqov@gmail.com

⁵ Фуломов А., Нематов Х. Она тили таълими мазмунни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.

⁶ Фуломов А., Нематов Х. Она тили таълими мазмунни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи. 1996. – Б.